

“ZAMONAVIY VIRTUAL NUTQ JARAYONIDA PARALINGVISTIK VOSITALARNING O’RNI”

Farg'ona davlat Universiteti 1-kurs tayanch doktoranti
Asqaraliyeva Xayotxon Akbarali qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy virtual muloqot jarayonida qo'llaniluvchi paralingvistik vositalar xususida ularning o'ri, kamchilik tataflari va yutuqlari haqida qisqacha fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *virtual muloqot, tasnif, paralingvistik vosita, nutqiy jarayon.*

Har bir insonning shakllanishi, ijtimoiylashuvi, shaxs sifatida tarkib topishida ijtimoiy muhit, xususan, muloqot eng muhim omil sanaladi. Negaki, kishilik jamiyatini insonlarning muloqotisiz tasavvur etish mumkin emas. Muloqot– inson hayotidagi eng buyuk ehtiyojdir. Chunki insonni boshqa jonzodlardan farqlovchi muhim jihatliridan biri ham uning muloqotga kirisha olish qobiliyatining mavjudligidir. “Darhaqiqat, muloqot ikki va unda ortiq kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish ehtiyojini qondirishga qaratilgan o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bunda axborotlar almashiniladi, munosabatlar o'rnatiladi hamda rivojlantiriladi. Muloqot barcha tirik jonzodlarga xos bo'lsa-da, ammo inson darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo'ladi, ya'ni nutq vositasida anglashiladi.”

Muloqot insonlar o'rtasida amalga oshiriladigan ongli faoliyat bo'lib, unda, albatta, o'ziga xos maqsad va mazmun o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shuningdek, muloqotning hamkorlikda harakat qilish va faoliyat ko'rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan vosita til bo'lib, u muloqotga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishni ta'minlaydi.

M.Hakimov so'zlashuvchilar o'rtasidagi muloqot jarayoni birgina lisoniy sistema elementlarining o'zi bilangina ifodalanib qolmay, balki fikr almashish, axborot uzatishga xizmat qiluvchi tilga yondosh nolisoniy birliklar bilan ham amalga oshirilishi, axborotning to'liq va mukammal bo'lishi hamda to'g'ri idrok qilinishiga xizmat qilishini ta'kidlagani holda quyidagi fikrlarni ilgari suradi:” Ifoda vositalarining rang-barangligi so'zlashuvchilar nazarda tutgan kommunikativ maqsad yoki axborotnigina ifodalamaydi. Nutq ishtirokchilari muloqot jarayonida foydalanadigan har bir lisoniy yoki nolisoniy sistema birliklari verbal va noverbal aktlarni hosil qilishi bilan birga, so'zlashuvchilar shaxsiga doir xususiyatlarni ham ifodalashiga xizmat qiladi. Bu har qanday til sistemasida mavjud bo'lib, o'sha tilga mansub barcha aktlarda namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham har qanday tilda o'sha millatning urf-odati, milliy qadriyatleri, madaniyati aks etadi. Bu esa dunyo xalqlari tillarining o'ziga xos kodlanish sistemasiga ega ekanligidan dalolat beradi. Kodlanish sistemasi nafaqat tilda, balki nutqiy muloqot jarayonida ko'makka keluvchi boshqa ifoda vositalarida to'liq aks etadi.

Nolisoniy sistema elementlari ham millatning urf-odatini, qadriyatini va madaniyatini aks ettiruvchi maxsus kodlanish tizimi sifatida e'tirof etiladi. Muloqot jarayoni ana shu bir necha kodlanuvchi sistema elementlari yordamida amalga oshiriladi. Umuman, ifoda vositalari bir jihati bilan shaxsga xos xususiyatlarni ko'rsatish uchun xizmat qilsa, ikkinchi jihati bilan millat tili va o'sha xalqning o'ziga xos mentaliteti, madaniyati, urf-odatini ifodalashga xizmat qiladi. Buni fan tilida ifoda vositalarining milliy-madaniy kodlanishi deb yuritiladi.

Darhaqiqat, yuqoridagi fikrlar ayni haqiqat bo'lib, muloqot jarayonining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmidan dunyo tilshunosligida verbal vositalar bilan bir qatorda noverbal vositalar va ularni tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar maydonga keldi hamda noverbal vositalarni turli yo'nalishlarda tadqiq etishga e'tibor qaratila boshlandi. Bu holatni F.de Sossyur, E.D. Polivanov, V.V. Vinogradov, G.V. Kolshanskiy, R.Yakobsen kabi olimlarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin. O'zbek tilshunosligida ham bu yo'nalishda olib borilgan ishlar talaygina. Xususan, A. Nurmonov, Sh. Iskandarova, S.Mo'minov, M.Saidxonov, Sh.Safarov, D. Xudoyberganova, D. Rustamov kabi olimlarning bu boradagi ishlari e'tirofga loyiq.

M.Saidxonov "Nolisoniy vositalarni verbal ifodalash, ularning nominativ xususiyatlari va semantik o'ziga xosliklari badiiy matnda namoyon bo'ladi. Nolisoniy vositalarning nominatsiyasi lisoniy birlik sifatida leksik-semantik, leksik-grammatik, struktur jihatdan lingvistik tadqiq obyekti sanaladi. Ularning matn tarkibida ishlatilishi, uslubiy-matniy xususiyatlarining denotativ tomonlari kinemalarning so'zlashuv jarayonida tabiiy qo'llanishini anglatadi" – deya ta'kidlab o'tadi. D. Rustamov esa doktorlik ishida muloqot jarayonida qo'llanuvchi paralingvistik vositalarni quyidagicha tasniflaydi:

I. Og'zaki nutqqa xos paralingvistik vositalar:

- 1) fonatsion vositalar: ovoz tembri, ohangi, pauza, kerakli o'rinlarni ovoz o'zgarishi orqali ta'kidlash;
- 2) optik vositalar: ko'z orqali imo-ishoralar;
- 3) mimika: yuz harakatlari;
- 4) kinetik yoki "pantomimik" vositalar: bosh va gavda harakatlari.

II. Yozma muloqotga xos paralingvistik vositalar:

Grafik vositalar:

- a) tinish belgilarni uslubiy talab asosida noan'anaviy qo'llash;
- b) shriftning hajmi va rangini o'zgartirish, kursiv orqali ajratib ko'rsatish;
- v) yordamchi ramziy grafik belgilar: §, №, %, +, -, /, [], &, \$, *, = kabi

III. Virtual muloqotga xos paralingvistik vositalar:

Audiovizual vositalar: ovozli yozuv, videotasvir kabi.

IV. Universal paralingvistik vositalar:

Ikonik (tasviriy) vositalar: rasm, foto, sxema, chizma, tablitsa kabi.

K.Umarov ushbu tasnifda paralingvistik vositalar ancha mukammal tasniflanganini e'tirof etgani holda III va IV guruh vositalarini "Universal paralingvistik vositalar" nomi ostida birlashtirish ma'qul deb hisoblaydi va xohish- istak kategoriyasi ham muloqot mexanizmini harakatlantiruvchi etnopsixolingvistik uzvlardan biri sifatida o'zining paralingvistik shakllaiga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Muloqot jarayonida so'zlovchining nutqi shundayligicha emas, balki emotsional, tasviriy shaklda uzatiladi. Bu jarayonda faqat verbal vositalargina emas, balki noverbal vositalarning ham ishtiroki muhim sanaladi. Verbal muloqotda ko'proq nutqda mimika, imo-ishoralar va boshqa vositalar verballashgan holda qo'llanilsa, virtual muloqotda esa ularning vazifasini turli grafik, punktuatsion va tasviriy belgilar bajaradi va ularning effekti juda yuqori darajada ekanligi jihatidan xarakterlanadi.

Masalan, imlamoq, ko'z qismoq, qosh chimirmoq, qo'lini ko'ksiga qo'yib ta'zim qilmoq kabi noverbal vositalar o'rnida internet muloqotida turli xildagi harakatli – rasmi vositalar bajaradi va ular juda rang-barang holda berilganki, unda muloqotchilarning his-tuyg'ulari, emotsiyalarini ushbu vositalar orqali yaxshi his qilish mumkin. Chunki bu vositalarni ko'ramiz. Shuning uchun ham virtual muloqot jarayonida qo'llanuvchi noverbal vositalarni badiiy matnda verballashgan noverbal vositalarga nisbatanqiyoslash orqali bu jarayondagi afzalliklar va kamchiliklarni o'rganish galdagi muhim vazifalardan biri sanaladi. O'ylaymizki, bu vositalar muloqot jarayonida kommunikantlarning bir-birini tushunishini qulaylashtiradi hamda yuqori darajada emotsionallikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sultanov T.L. Muloqotning umumiy xususiyatlari. / Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Prof. A. Nurmonov xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya mater. Andijon, 2022. -B.74-75
2. Рустамов Д. Мулоқотнинг интралингвистик ва экстралингвистик талқинлари ҳамда замонавий концепциялари: филология фанлари доктори (DSc) дисс... – Андижон, 2021. – 229
3. Саидхонов М. Ишораларнинг вербаллашуви ва матний хусусиятлари Монография.Тошкент, 2022. –Б.211
4. Ҳакимов М. Мулоқот жараёнида новербал воситаларнинг ўрни. / Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Prof. A. Nurmonov xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya mater. Andijon, 2022. - Б.66
5. Umarov K. O'zbek tilida xohish-istak kategoriyasining ifodalanishi va uning lingvokulturologik aspekti. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) diss.avtoreferati. Andijon, 2023